e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/e118z214

ERKINLIK VA MAS'ULIYAT DIALEKTIKASI

Saidova Rushana Ravshanovna

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, magistratura bo'limi boshlig'i.

e-mail: rushanasaidova33@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0005-8324-766X

Annotatsiya.

Mazkur maqolada erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi bog'liqlik falsafiy, ijtimoiy va axloqiy jihatdan tahlil qilinadi. Erkinlik mutlaq o'zboshimchalik emas, balki ongli tanlov va uning oqibatlari uchun javobgarlikni o'z ichiga olgan murakkab hodisa sifatida talqin etiladi. Mas'uliyat erkinlikni cheklovchi omil emas, aksincha, uni mazmun, barqarorlik va ijtimoiy qadriyatlar bilan boyituvchi asos sifatida qaraladi. Maqolada shaxs va jamiyat munosabatlarida, fuqarolik jamiyati hamda huquqiy davlat sharoitida ushbu ikki tushunchaning o'zaro dialektik aloqadorligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: mas'uliyat, erkinlik, dialektika, ongli tanlov, shaxs va jamiyat, axloqiy qadriyatlar, fuqarolik jamiyati, huquqiy madaniyat, ma'naviy kamolot, ijtimoiy javobgarlik.

ДИАЛЕКТИКА СВОБОДЫ И ОТВЕТСТВЕННОСТИ

Саидова Рушана Равшановна

Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, начальник отдела магистратуры.

Аннотация.

В статье анализируется взаимосвязь свободы и ответственности с философской, социальной и нравственной точек зрения. Свобода рассматривается не как абсолютное своеволие, а как сложное явление, предполагающее осознанный выбор и ответственность за его последствия. Ответственность трактуется не как фактор, ограничивающий свободу, а как основа, наполняющая её смыслом, устойчивостью и социальной ценностью. В статье раскрывается диалектическая взаимосвязь этих двух понятий в отношениях личности и общества, а также в условиях гражданского общества и правового государства.

Ключевые слова: ответственность, свобода, диалектика, осознанный выбор, личность и общество, нравственные ценности, гражданское общество, правовая культура, духовное совершенствование, социальная ответственность.

THE DIALECTICS OF FREEDOM AND RESPONSIBILITY

Saidova Rushana Ravshanovna

University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, Head of the Master's Department.

Abstract.

This article analyzes the relationship between freedom and responsibility from philosophical, social, and ethical perspectives. Freedom is interpreted not as absolute arbitrariness but as a complex phenomenon involving conscious choice and accountability for its consequences. Responsibility is regarded not as a factor that restricts freedom but as a foundation that enriches it with meaning, stability, and social value. The article explores the dialectical interrelationship between these two concepts in the context of relations between the individual and society, as well as within civil society and the rule of law.

Keywords: responsibility, freedom, dialectics, conscious choice, individual and society, moral values, civil society, legal culture, spiritual development, social responsibility.

Kirish. So'z erkinligi insonning o'z fikrini ochiq ifoda etishi va jamoatchilik muhokamasida ishtirok etishining muhim shartidir. Fikrni ommaga bildirish uning boshqalarga va jamiyatga ta'sirini hisobga olish mas'uliyatini ham yuzaga keltiradi. Bu mas'uliyatning axloqiy mazmuni insonning o'z fikrini erkin ifodalashi, uni qanday bayon etishni mustaqil tanlashi va o'z tanlovining oqibatlarini anglashida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, so'z erkinligi va ijtimoiy mas'uliyatning o'zaro bog'liqligini yoritish tarixiy-falsafiy tahlilni talab etadi.

O'zbekiston sharoitida mazkur masalani o'rganish Sharq ma'naviy merosidagi axloqiy burch va jamoa oldidagi mas'uliyatga oid qarashlarni G'arb demokratik tafakkurida shakllangan shaxs erkinligi va ochiq munozara tamoyillari bilan qiyoslash imkonini beradi. Maqolaning maqsadi Sharq va G'arb falsafiy an'analarida erkinlik va mas'uliyat nisbati qanday talqin etilganini qiyosiy tahlil qilish hamda shu asosda O'zbekistonning ijtimoiy-madaniy sharoitiga mos «mas'uliyatli so'z erkinligi» modelining nazariy asoslarini belgilashdan iborat.

ISSN 3060-5059 (Online)

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qiyosiy tahlilning asosiy xavfi – ikki an'anani bir-biriga qarama-qarshi qo'yish, ularni o'zgarmas «mohiyatlar» sifatida tasavvur qilishdir. Uzoq vaqt davomida yevropatsentristik adabiyotda erkinlik G'arb tafakkurining mulki, Sharq esa taqdirga tan bergan, shaxsni jamoa ichida eritib yuboradigan madaniyat sifatida tasvirlanib kelindi. A. A. Xuseynova Abdurahmon Jomiy dunyoqarashini tadqiq etar ekan, Sharq ongining irratsionalligi haqidagi afsona uzoq ildizlarga ega ekanini va zamonaviy G'arb tadqiqotchilarida foydasiz stereotiplarni vujudga keltirayotganini qayd etadi. Muallifning ta'kidlashicha, sovetshunos va osiyoshunoslar faqat G'arb mentalitetiga xos deb da'vo qilgan erkinlik, demokratiya, inson huquqlari kabi qadriyatlar Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviy hayotiga ham xos bo'lib, bu xalqlar ulardan kelib chiqadi va ular bilan yashaydi [1:92]. N. E. Temirova ham Sharq va G'arb azaldan bir-biriga dushman, ular hech qachon qo'shila olmaydi, degan qarashni xalqlar orasiga adovat urug'ini sochuvchi g'oya sifatida baholaydi [2:39] va taraqqiyot tarixiga Sharq va G'arb xalqlari navbatma-navbat hissa qo'shib kelganini, o'rta asrlarda tashabbus Sharq qo'lida bo'lgan bo'lsa, keyingi davrda G'arb oldinga o'tib olganini ko'rsatadi [3:40]. Bu yondashuv bizning tadqiqotimiz uchun ham boshlang'ich metodologik pozitsiya bo'lib xizmat qiladi: Sharq va G'arb an'analari bir-birini istisno etuvchi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi tajribalar sifatida qaraladi.

Shu bilan birga, farqlarni inkor etish ham ilmiy xolislikka zid bo'lur edi. P. S. Gurevichning falsafiy antropologiyasiga tayanib, N. E. Temirova shaxsning ijtimoiy qadriyatlarga yoki shaxsiy maqsadlariga amal qilishi u yashagan madaniyat xarakteriga bog'liq ekanini ta'kidlaydi: «G'arb kishisi uchun yon-atrofni, tashqi olamni, Sharq kishisi uchun o'zini, ichki olamini bilish madaniyatining xarakteri uning hayotiy maqsadlariga ta'sir etadi» [4:85]. Muallifning fikricha, tarixiy rivojlanish jarayonida Sharq kishisi o'z ichki olamini anglash, G'arb kishisi esa tashqi olamni anglash va uni o'z manfaatlariga bo'ysundirish yo'lidan borgan, ammo bu yo'llar XX asrga kelib qayta uyg'unlasha boshlagan [5:86]. Ushbu tipologiya ideal-tipik xarakterga ega va uni mutlaqlashtirish mumkin emas: keyinroq ko'ramizki, G'arbda ham stoiklardan Kantgacha ichki erkinlik an'anasi, Sharqda ham Forobiydan jadidlargacha ijtimoiy-siyosiy erkinlik g'oyasi mavjud bo'lgan. Shunga qaramay, u qiyoslash uchun foydali oriyentir bo'lib, erkinlik va mas'uliyatning asosiy «urg'usi» qayerga tushishini aniqlashga yordam beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqotda qiyosiy tahlilni izchil olib borish uchun biz quyidagi mezonlarni ajratamiz: erkinlikning manbai (u nimaga asoslanadi); erkinlikning yetakchi shakli (ichki, ma'naviy yoki tashqi, ijtimoiy-huquqiy); mas'uliyat instansiyasi (inson kimning oldida javob beradi); axloqiy regulyatsiyaning ustuvor turi (ichki yoki tashqi); shaxs va jamiyat nisbati; ideal shaxs modeli; va nihoyat, har bir an'ana bir tomonlama rivojlanganda yuzaga keladigan xavf. Bu mezonlar paragraf yakunidagi qiyosiy jadvalning asosini tashkil etadi.

Avvalo, «erkinlik va mas'uliyat dialektikasi» tushunchasining o'zi nimani anglatishini aniqlashtirib olish lozim. M. M. Qahhorova shaxsning axloqiylik darajasini belgilashda «uning iroda erkinligiga, burch va mas'uliyatga egaligini nazarda tutish maqsadga muvofiq» ekanini ta'kidlab, iroda, burch va mas'uliyatni oliy ma'naviy-axloqiy fazilatlar sifatida bir butun tizimda ko'rib chiqadi [6:216]. Bu uchlik erkinlik va mas'uliyatning bir-biriga tashqaridan qo'shilmasligini, balki axloqiy subyektning yagona tuzilmasini tashkil etishini ko'rsatadi. S. S. Tuychiyeva esa erkinlik tushunchasi, agar u shaxsning mutlaq o'zboshimchaligi, xatti-harakatlarining hech narsa bilan shartlanmaganligi sifatida tushunilsa, ma'nosiz bo'lib qolishini ta'kidlaydi [7:81] va bu yerda ijtimoiy zaruriyat bilan erkin insoniy ijod o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning dialektik tabiati namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Muallif erkinlikni insonning obyektiv zaruriyatdan mustaqilligi emas, balki «степень его возможности и способности действовать согласно своим объективно обусловленным взглядам и устремлениям» sifatida ta'riflaydi.

A. S. Abidjanov ham erkin faoliyatda harakatning determinatsiyasi subyektning o'zida tug'ilishini, harakat erkinligi esa tanlash imkoniyati orqali ro'yobga chiqishini qayd etadi [9:26].

Bu ta'riflardan muhim xulosa kelib chiqadi: erkinlik va mas'uliyat o'rtasida ikki tomonlama bog'liqlik mavjud. Bir tomondan, erkinlik mas'uliyatning sharti hisoblanadi: tanlash imkoniyatiga ega bo'lmagan subyektga harakat oqibatlarini yuklash mumkin emas. Ikkinchi tomondan, mas'uliyat erkinlikning mavjudlik shakli bo'lib, u erkinlikni o'zboshimchalikdan ajratib turadigan ichki chegara vazifasini bajaradi. S. S. Tuychiyevaning qayd etishicha, determinizm g'oyasi inson xatti-harakatlarining zaruriyatini e'tirof etsa-da, na uning aqlini, na vijdonini, na xatti-harakatlariga baho berishni bekor qiladi; erkinlikka faqat insonning nima bilan yashashi emas, balki qanday yashashi ham taalluqlidir [10:83]. Demak, erkinlik va mas'uliyat dialektikasi – zaruriyat bilan tanlov, huquq bilan burch, shaxsiy intilish bilan ijtimoiy me'yor o'rtasidagi ziddiyatli birlikdir. Bu birlik turli madaniyatlarda turlicha anglangan, biroq har birida u axloqiy tafakkurning markaziy muammosi bo'lib kelgan.

G'arb falsafiy an'anasida erkinlik va mas'uliyat munosabati ilk bor antik davrda izchil muammo sifatida qo'yilgan. Platon «Davlat» asarining yakunidagi Er haqidagi rivoyatda ruhlar o'z kelgusi hayotini tanlayotgan lahzada ilohiy jarchi aybning tanlovchida ekanini, xudoning esa bunda aybi yo'qligini e'lon qiladi [11:617]. Bu tasvirda G'arb tafakkurining keyingi tarixi uchun fundamental ahamiyatga ega bo'lgan tamoyil ifodalangan: mas'uliyat tanlovdan kelib chiqadi va inson o'z hayot yo'lini tanlagan ekan, uning oqibatlari uchun ham o'zi javob beradi. Shu bilan birga, Platon cheklanmagan erkinlikning xavfidan ham ogohlantirgan. Z. Q. Asrarova ta'kidlaganidek, odam tabiatan erkinlikni yoqtiradi, ammo har qanday jamiyat o'z a'zolariga hech qachon mutlaq erkinlik berib qo'ymaydi; agar mutlaq erkinlik berilsa, bir kishining ehtiyojini boshqa kishining ehtiyoji hisobiga qondirishga yo'l ochiladi. Platon aytganidek, shunday «demokratik» odamlar paydo bo'ladiki, ularning har biri o'zining to'la haqligini da'vo qiladi, bu esa butun jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin [12:62].

Platondagi bu ikki jihat – tanlovga asoslangan shaxsiy mas'uliyat va jilovlanmagan erkinlikning ijtimoiy xavfi – erkinlik va mas'uliyat dialektikasining antik davrdagi ilk formulasi edi.

Arastu bu muammoni etik nazariyaning maxsus predmetiga aylantirdi. «Nikomax axloqi»ning uchinchi kitobi ixtiyoriy va ixtiyorsiz xatti-harakatlarni farqlashdan boshlanadi: maqtov va malomat faqat ixtiyoriy harakatlarga nisbatan qo‘llaniladi, ixtiyorsiz harakatlar esa kechirim yoki achinishga loyiq bo‘ladi [13:35]. Faylasufning xulosasiga ko‘ra, ezgulik ham, illat ham bizning ixtiyorimizda: harakat qilish bizga bog‘liq bo‘lgan joyda harakat qilmaslik ham bizga bog‘liqdir [14:72]. Shu tariqa Arastu axloqiy javobgarlikni insonning o‘z harakatlari «boshlang‘ichi» bo‘lishiga bog‘lab, G‘arb huquqiy va axloqiy tafakkurida keyinchalik «aybni yuklash» (imputatio) nomini olgan g‘oyaning asosini yaratdi. M. M. Qahhorova Arastuning axloq amaliy masalalarni hal etishi, inson baxti esa faoliyatiga bog‘liqligi haqidagi fikrini keltirib, uning «Katta axloq» asaridagi «ijtimoiy va siyosiy hayotda faoliyat yuritmoqchi bo‘lgan odam axloqi fozil (ya’ni fazilatli odam) bo‘lmog‘i kerak» degan talabiga e’tibor qaratadi. E’tiborli jihati shundaki, muallif aynan shu sahifada Arastu qarashlarini Buxoriy hadislari va Forobiyning fozil shahar haqidagi ta’limoti bilan yonma-yon qo‘yadi. Bu Sharq va G‘arb etikasi o‘rtasidagi genetik aloqaning ifodasidir: Arastu etikasi arab tilidagi ilm orqali Markaziy Osiyo mutafakkirlarining axloqiy ta’limotlariga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

XULOSA

Ellinizm davrida esa falsafiy tafakkurning urg‘usi ijtimoiy-siyosiy erkinlikdan ichki erkinlikka ko‘chdi. A. A. Qambarov ellinizm davrida inson individualligi va subyektivligiga qiziqish kuchayganini, biroq bu qiziqish subyektivizm va relyativizmga keskin e’tirozni ham vujudga keltirganini, bu jihatdan stoiklarning aksiologik qarashlari alohida e’tiborga loyiq ekanini qayd etadi. Epiktetning «Qo‘llanma»si aynan shu g‘oya bilan boshlanadi: ba’zi narsalar bizga bog‘liq – fikrimiz, intilishimiz, xohish va nafratimiz, ba’zilari esa bizga bog‘liq emas – tanamiz, mulkimiz, obro‘yimiz va mansabimiz. Stoik erkinligi tashqi sharoitni o‘zgartirishda emas, balki o‘ziga bog‘liq bo‘lgan sohada – o‘z munosabati va hukmida to‘liq hokim bo‘lishda namoyon bo‘ladi. Mas’uliyat ham shu soha bilan cheklanadi: inson taqdir zarbalariga emas, balki ularga qanday munosabatda bo‘lishiga javob beradi. Keyinroq ko‘ramizki, stoik ichki erkinlik g‘oyasi tasavvufdagi nafs tarbiyasi va ichki ozodlik tushunchalariga tipologik jihatdan yaqin bo‘lib, u Sharq va G‘arb an’analari o‘rtasidagi tabiiy ko‘prik vazifasini o‘taydi.

O‘rta asrlar xristian dunyosida erkinlik va mas’uliyat muammosi ilohiy inoyat va inson irodasi nisbati shaklida qo‘yildi. Avreliy Avgustinning iroda erkinligi va ilohiy inoyat haqidagi bahslari, Foma Akvinskiyning aql va irodani uyg‘unlashtirishga urinishi ushbu davr tafakkurining asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi. Biroq ijtimoiy amaliyotda ustuvor bo‘lgan tartib haqida A. A. Qambarov shunday yozadi: «Diniy qadriyatlar ustuvor bo‘lgan o‘rta asrlarda axloqiy burchni bajarish ijtimoiy majburiyatga aylandi. Shaxs axloqiy tanlash erkinligiga ega emas edi. Shuning uchun ham axloqiy normalarning bajarilishi keng jamoatchilik tomonidan nazorat qilinar va boshqarilar edi».

Bu baho, tabiiyki, umumlashtiruvchi xarakterga ega, biroq u tashqi regulyatsiya ustuvor bo‘lgan, burch tanlovdan ajralib qolgan axloqiy tizimning mohiyatini aniq ifodalaydi. Shu bilan birga, o‘rta asrlar tafakkurining o‘zida ham bu tizimga qarshi ichki tendensiyalar yetilib borgan. M. M. Qahhorova Pyer Abelyar uchun imon axloqiy tanlov bo‘lganini, axloqiy tanlovni to‘g‘ri hal qilgan inson Xudo va u yaratgan mavjudotlar mohiyatini anglab yetishini, Erazm Rotterdamskiy esa «imon» tushunchasini aql, iroda erkinligi va nodonlikdan qochish g‘oyalari bilan boyitganini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Хусейнова А. А. Общечеловеческие ценности в мировоззрении Абдурахмана Джами: дис. ... канд. филос. наук. – Ташкент, 1994. – С. 92. –https://oila-ilmiy.uz/index.php/family-social-life/article/view/490. oila-ilmiy.uz
2. Temirova N. E. Talaba yoshlarning ma’naviy shakllanishida milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasi: falsafa fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent, 2007. – B. 39.
3. Qahhorova M. M. Jamiyatda ma’naviy-axloqiy muhit: muammo va yechimlar: falsafa fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2012. – B. 216. https://api.ziyonet.uz/uploads/books/7007/62ee71a29821a.pdf. api.ziyonet.uz
4. Туйчиева С. С. Диалектика развития активности личности в сфере духовной жизни: дис. ... канд. филос. наук: 09.00.11. – Ташкент, 1994. – С. 81. https://api.ziyonet.uz/uploads/books/47828/5b34c5b70e391.pdf. api.ziyonet.uz
5. Абиджанов А. С. Человек как объект и субъект культуры: дис. ... канд. филос. наук. – Ташкент, 1994. – С. 26. – nauka-pedagogika.com
6. Asrarova Z. Q. Shaxs ehtiyojlari va ularning falsafiy tahlili: falsafa fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent, 2003. – B. 62. https://supportscience.uz/index.php/ojss/article/view/20. Oriental Journal of Social Sciences
7. Aristotle. The Nicomachean Ethics / translated by D. Ross; revised, with an introduction and notes, by L. Brown. – Oxford: Oxford University Press, 2009. – Book III, Chapter 1, 1109b30–35. – URL: https://www.oupjapan.co.jp/en/products/detail/4256. Oxford University Press
8. Qambarov A. A. Jamiyatning ma’naviy yangilanishi jarayonida ilmiy qadriyatlarning roli: falsafa fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – 2006. – B. 48. https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/12928. universalpublishings.com
9. Epictetus. The Handbook (The Encheiridion) / translated, with introduction and annotations, by N. P. White. – Indianapolis: Hackett Publishing Company, 1983. – § 1.1. – URL: https://books.google.com/books?id=9WRzxtTBkPgC. books.google.com